Barotova Anisa Razokovna

Mustaqil tadqiqotchi Toshkent davlat agrar universiteti,Toshkent

Go'zaning G. hirsutum L. va G.barbadense L. turlariga mansub boshlang'ich ota-ona shakllarining morfo-xo'jalik belgilarining tahlili

Annotatsiya : Maqolada g'o'za G. hirsutum L. va G.barbadense L. turlariga mansub boshlang'ich ota-ona shakllarining morfo-xo'jalik belgilarining tahlil qilingan. Tahlillar natijasida genetik-seleksion izlanishlarda boshlang'ich ashyo sifatida foydalanish uchun maqsadga muvofiq bo'lgan ota –ona shakllari ajratib olingan.

Kalit so'zlar : G'o'za, oila, tola, sifat ko'rsatkichlari, ko'saklar soni, tola chiqmi, tola uzunligi.

Dunyoda g'o'za yetishtirilayotgan 86 ta davlatlarda har yili 24-26 mln. tonna tola yig'iladi va eksport qilinadi . G'o'za seleksiyasida muhim muammolardan biri serhosil, yuqori tola chiqimi va sifatiga ega, tezpishar navlarni yaratish va ulardan ishlab chiqarishda keng foydalanish hisoblanadi. Dunyoda g'o'za o'simligi jahon to'qimachilik sanoatida asosiy o'rin tutadi. Yer yuzida aholi sonining o'sishi, sug'oriladigan ekin maydonlarini cheklanib borayotganligi tufayli dunyo davlatlarining qishloq xo'jaligida ekin maydonlarini kengaytirmasdan yuqori va sifatli hosil olish dolzarb vazifalardan hisoblanadi. Bu borada paxtachilikda yetakchi o'rinlarni egallab turgan AQSh, Xitoy, Avstraliya kabi davlatlar bo'lib, paxtachilikning asosiy mahsuloti hisoblangan tola hosildorligini oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Hozirgi kunda g'o'zaning yangi navlarini yaratish bo'yicha tadqiqotlar olib borishda duragaylash uchun ashyo tanlash muhim. Bu borada duragay tizim va shakllarni otnogenezida ro'y beradigan genotipik va fenotipik jihatidan o'zgaruvchan mexanizmlarni o'rganish muhim ahamiyatga ega. Chunki duragaylarning asosiy miqdoriy belgilari polimer (ko'p) genlar tomonidan boshqariladi. Bunda, ayniqsa asosiy va modifikator genlar mikropopulyasiyalarni shakllanishida ijobiy rol o'ynaydi. Mazkur g'o'za navlarini yaratishda katta talablar qo'yilmoqda. G'o'zaning serhosil, kasalliklarga chidamli,

ertapishar, tolasining sifat ko'rsatkichlari yuqori bo'lishi lozim. Bu esa nihoyatda murakkab jarayon bo'lib, genetik – seleksionerlarning oldiga bir qator vazifalarni yuklaydi. G'o'zaningyangi navlarini yaratishda, genotipi boyitilgan oilalarni ajratib olishda qimmatli xo'jalik belgilarining ko'rsatgichlari yuqoriligi muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada, har hil genotipli, genotipik va geografik jihatdan uzoq bo'lgan shakllarni tanlab olish, ayniqsa, turlararo duragaylash ishlarini olib borish yaxshi samara beradi.

Ashxabod-8, Surxon-14, Deltapine-80, Deltapine-82, Lokal, Kelajak va O'zFA-703 navlaridan mazkur belgilari bo'yicha hosil shoxi, o'suv shoxi, birinchi hosil shoxigacha bo'lgan (hs) bo'g'inlar soni, bosh poya balandligi va o'simlikdagi ko'saklar soni kabi belgilarini ko'rsatgichlarining fenotipik namoyon bo'lishida darajalarini aniqlash bo'yicha ishlar olib borildi. (1-jadval)

Tadqiqot uchun boshlangich ashyo sifatida olingan Ashxobod-8, Surxon-14, Deltapine-80, Deltapine-82, Lokal, Kelajak va O,,zFA-703 navlarining birinchi hosil shohigacha bo'lgan bo'g'in (hs) lar soni, o'suv shohi, hosil shohi soni va bosh poya balandligi belgilarining dastlabki o'rtacha ko'rsatkichlarini o'rganish.

Tadqiqotlarimizda, bitta o'simlikdagi hosil shohining soni belgisi bo'yicha ingichka tolali Ashxobod-8 (16.8 dona), Surxon-14 (16.50 dona) va o'rta tolali Kelajak (15.6 dona), Deltapine-82 (14.9 dona) va Lokal (14.7 dona), Deltapine-80 (12.9 dona) va O'zFA-703 (12.8 dona) navlarida o'rtacha ko'rsatkich kuzatildi. O'suv shohi soni belgisi bo'yicha Kelajak (1,50 dona), Surxon-14 (2.0 dona), Deltapine-82 (1.43 dona) O'zFA-703 (1.33 dona), Deltapine-80 (1.29 dona), Ashxobod-8 (1.17 dona), Lokal (1.0 dona) navlarida o'rtacha ko'rsatkich qayd qilindi.

1-jadval

Ota-ona shakllarining hs, hosil shohi, o'suv shohi soni belgilarining o'rtacha ko'rsatkichlari

T/r №	Ota-ona shakllar	Bosh poya balandligi (sm)	Ko'saklar soni (dona)

		X ± m	Σ	X ± m	σ
1	Ashxabod	110.5±2.23	14.8	19.8±0.78	5.20
2	Surxon 14	121.0±2.38	15.7	16.7±1.48	9.83
3	Deltapine 80	91.5±2.13	15.15	18.4±0.88	5.85
4	Deltapine 82	103.5±2.33	15.47	19.3±1.17	7.79
5	Lokal 18	119.5±2.83	77 17	0±1.12	7.42
6	Kelajak	73.1±2.46	16.33	18.3±1.79	11.85
7	O'zFA-703	106.5±0.8	5.30	12.8±3.0	3.05

Birinchi hosil shohigacha bo'lgan bo'g'in (hs) lar soni belgisi bo'yicha O'zFA-703 (5.20 dona), Surxon-14 (5.0 dona), Ashxobod-8 va Kelajak (4,30 dona), Deltapine-82 va Lokal (4,50 dona), Deltapine-80 (4.20 dona) navlarida o'rtacha ko'rsatkich kuzatildi. (3.1.1-jadval).

Bosh poya balandligi belgisi bo,,yicha ingichka tolali Surxon-14 (121.0 sm), Ashxobod-8 (110.5 sm), o'rta tolali Lokal (119.5 sm), O'zFA-703 (106.5 sm), Deltapine-82 (103.5 sm), Deltapine-80 (91.5 sm), Kelajak (73.1 sm) navlarida o'rtacha ko'rsatkichlar qayd qilindi. Bitta o'simlikdagi ko'saklar soni belgisi bo'yicha ingichka tolali Ashxobod-8 (19.8 dona), Surxon-14 (16.7 dona), o'rta tolali Kelajak (24.3 dona), Deltapine-82 (19.30 dona), Lokal (17.0 dona), Deltapine-80 (18.4 dona), O'zFA-703 (12.8 dona) navlarida o'rtacha ko'rsatkichlarda kuzatildi.

Adabiyotlar ro'yxati :

1.Shamsutdinov Sh.I. G'o'zada turlararo duragaylashda tezpisharlikning irsiylanishi. // O'zbekiston Agrar fani xabarnomasi. –Toshkent. 2005. -№3 (21). –B. 27

2. Chorshanbiev N.E., Abdusalomova I.N., Hazratqulov E. Mahalliy yangi ingichka tolali g'o'za nav va tizmalarida morfo –xo'jalik belgilarini o'rganish. //Professor Atabaeva Xalima Nazarovna tavallud kunining 85 yilligi va ilmiypedagogik faoliyatining 67

yilligiga bag'ishlangan "Qishloq xo'jaligi ekinlarini etishtirishda dolzarb masalalar va uni rivojlantirish istiqbollari" mavzusidagi halqaro ilmiy-amaliy konferensiya. Toshkent, 2020, 2-qism. -B. 601-604.

3. Dala tajribalarini o'tkazish usullari. Toshkent, O'zPITI, 2007/ 146.b.

4.Доспехов Б.А. Методика полевого опыта. – Москва, Агропромиздат, 1985. – 351 с.